

## ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMA TUSHUNCHASI VA BELGILARI

**Aliyeva Marjona Obid qizi**

**Toshkent davlat yuridik universiteti biznes huquqi yo'nalishi magistri**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.13904465>**

Raqamli iqtisodiyotda mutlaqo yangi, ilgari noma'lum bo'lgan ijtimoiy munosabatlar shakllanayotgan bir vaqtda, yangi huquq paradigmasida huquqiy tartibga solishni raqamlashtirish masalasi yuzaga kelmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, yangidan yangi imkoniyatlarining yaratilishi hozirgi zamon huquq fani oldiga huquqning zamonaviy sohalarini takomillashtirish vazifasini qo'yimoqda. Pandemiya davrida aholining Internetga qaramligi har qachongidan ham oshdi va bu o'z navbatida Internet sohasini ham huquqiy tartibga solish masalasini yuzaga chiqardi. Huquqiy doktrinaning oldida huquqiy tizimni rivojlantirishda qanday yangi yo'nalishlar paydo bo'lishini, qaysi sohalar va huquqiy institutlar yangi sharoitlarda o'zgarishga qodirligi va qaysilari rivojlanishni talab qilishi, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sohasida huquqiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iboratligini huquqiy tahlil qilish vazifasi turibdi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qonun loyhasiga mazkur kodeksga "raqamli huquqlar" atamasini kiritish taklif etilgan. Bu orqali fuqarolik huquqi obyektlari tizimidagi raqamli huquqlarning o'rnini belgilanishiga, bunday obyektning muomalasi faqat axborot tizimiga yozuvlar kiritish orqali amalga oshirilishi mumkinligini, fuqarolar va yuridik shaxslarni ushbu obyekt yuzasidan tuzilgan bitimlarda ularning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Elektron tijorat huquqi (e-commerce law) atamasi aynan, raqamli huquqlarning yangi bir yo'nalishi sifatida vujudga keldi.

Shunday qilib, **elektron tijorat** – bu tijorat faoliyatini olib borish va bitimlar tuzish, shu jumladan, kim oshdi savdosini o'tkazishning hamkorlar, bank, tovarlarni yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasida o'zaro aloqa vositasi sifatidagi elektron tizimlar va internet tarmog'i yordamida amalga oshiriladigan texnik va tashkiliy shakllari yig'indisidir.

Ushbu belgilardan anglashilgan holda shuni aytishimiz mumkinki, elektron tijoratni avvalo, an'anaviy tijoratdan farqlay olishimiz lozim. Bunda tijoratning elektron turi ana'anaviy turiga nisbatan o'ziga xos farqli jihatlarga ega:

- bitimlar elektron savdo maydonchalarida tuziladi. Elektron savdo maydonchalari mobil ilovalar, internet saytlar va shu kabi boshqa ishtirokchilar o'rtasida interfeysni ta'minlovchi dasturiy mahsulotlar ko'rinishida bo'ladi. Bunday munosabatlarda bitimlar internet-do'konlarda tuzilganligi uchun ham tovarlarni turg'un savdo shoxobchalaridan tashqarida va nazorat-kassa mashinalaridan foydalanmasdan chakana va ulgurji sotishga yo'l qo'yiladi; -
- axborot kommunikatsiya tizimi mavjud bo'lishi kerak. Mazkur munosabatlar elektron savdo maydonchalarida yuzaga kelganligi sababli, ishtirokchilar o'rtasidagi vertual aloqani ta'minlab beradigan kommunikatsiya tizimi normal faoliyat yuritishi uchun sharoit mavjud bo'lishi kerak. Axborot kommunikatsiya tizimi sifatida odatda internetdan foydalanilsa-da, bu boshqa lokal tarmoqlardan foydalanish imkoniyatini istisno etmaydi;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish uchun soddalashtirilgan tartib va ish muomalasi odat va an'analari qo'llanishi mumkin. Masalan, odatdagi iste'mol mahsulotlarini realizatsiya qilishdan farqli ravishda, elektron tijorat shaklida non va non-bulka mahsulotlarini sotishda maxsus inventar (sanchqilar, pichoqlar, bo'lish taxtalari, stellajlar va shu kabilar) talab etilmaydi;

- tovarlarni sotishda turg'un savdo shaxobchalaridan tashqarida tegishli tarozilardan va boshqa o'lchov asboblariidan foydalanishga yo'l qo'yiladi; kartoshka va meva-sabzavot tovarlarini sotishda ularni taxta tokchalarga, etajerka va javonlarga va peshtaxtalarga, sovutgichlarga va boshqa jihozlangan inventarga qo'yish talab etilmaydi va hokazo.

Elektron tijoratning an'anaviy tijoratdan asosiy farqlaridan biri shu ekanki, bu, uning predmeti bo'lmish shartnomalarning elektron tarzda, elektron savdo maydonchasida tuzilishidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, an'anaviy tijoratda taraflarning huquq va majburiyatlari shartnoma orqali tartibga solinar ekan. Elektron tijoratda shartnoma tushunchasi esa, odatiy shartnomalardan biroz farq qiladi. Bunda, **elektron tijoratdagi shartnoma** – tovarlar, ishlar, xizmatlar oldi-sotdisi uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda taraflar o'rtasida tuziladigan kelishuv hisoblanadi. Ma'lumki, innovatsion texnologiyalar butun dunyo bo'ylab internet tarmog'i orqali shartnomalar tuzish va ulardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish uchun yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Elektron shartnomalarning an'anaviy shartnomalardan farqi shundaki, ular nafaqat moddiy resurslarsiz, balki, har qanday uchrashuvlarsiz ham tuzish mumkinligini taklif qiladi. S.V.Vasilyevning fikricha, elektron shartnomalar, shartnomaning yangi turi emas, balki innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda shartnoma tuzishning yangicha usuli hisoblanadi<sup>1</sup>. Bunda shartnoma mazmuni emas, balki uning shakli o'zgaradi. Ya'ni, shartnoma elektron tarzda tuziladi va u bilan bog'liq barcha harakatlar ham elektron tarzda amalga oshiriladi. Bunday harakatlarga misol qilib, shartnomani elektron raqamli imzolardan foydalangan holda imzolash, yoki hatto, to'lovlarni ham elektron tarzda amalga oshirish mumkinligini olsak bo'ladi. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, elektron shartnoma deganda, elektron savdo maydonchasida tuzilgan, taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi kelishuv tushunilar ekan. Quyida elektron shartnomaning an'anaviy shartnomadan farqli belgilari haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Elektron tijoratda shartnomaning asosiy belgisi, shartnoma taraflarining elektron aloqa vositalari orqali o'zaro hamkorlik qilishi hisoblanadi. Ya'ni bunday hamkorlikda taraflar elektron aloqa vositalari orqali o'zaro elektron hujjatlar, elektron xabarlar almashishadi. Taraflarning barcha harakatlari, shartnomadan kelib chiqadigan barcha munosabatlar ham elektron maydonda amalga oshiriladi.

Elektron tarmoq makonida tuziladigan shartnomalarning keyingi xususiyati shundan iboratki, elektron aloqa vositalari yordamida nafaqat xabarlar va hujjatlar, balki elektron hujjatlar ham uzatiladi. Ya'ni shartnomalar elektron hujjat holda tuziladi va rasmiylashtiriladi. Shunday qilib, fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, aloqa kanallari orqali uzatiladigan, elektron, magnit, optik yoki shunga o'xshash vositalar yordamida tayyorlangan, jo'natilgan, olingan yoki saqlanadigan ma'lumotlar, shu jumladan, elektron shaklda va elektron pochta ma'lumot almashish elektron hujjatdir.

Shu o'rinda A.Y.Ryikovning elektron tijoratda shartnomaga bergan ta'rifini ko'rib chiqadigan bo'lsak, "yuridik shaxslar tomonidan qonuniy maqsadga erishishga qaratilgan Internet jahon kompyuter tarmog'ida amalga oshiriladigan qonuniy harakatlar - huquq va

<sup>1</sup> Васильев С.В. Правовое регулирование электронной коммерции // Актуальные проблемы гражданского права: Сб. статей. Вып. 4 / Под ред. М.И. Брагинского. М., 2002.

majburiyatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishi<sup>2</sup> elektron shartnoma deyiladi. Ammo, fikrimcha, uning ushbu fikrlari qisman asossiz. Chunki elektron shartnomada taraflar har doim ham yuridik shaxslar bo'lmasligi ham mumkin. Bunda Y.A.Karevning "elektron shartnomalar deganda fuqarolar va yuridik shaxslarning elektron vositalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan va fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki tugatishga qaratilgan harakatlari<sup>3</sup>"ni tushunishiga qo'shilimiz mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, elektron tijoratning an'anaviy tijoratdan farqi, uning hech qanday moddiy resurslar (misol uchun, qog'oz, ruchka), uchrashuvlar, hujjatlarni pochta yoki faks orqali uzatish, ularni imzolash kabi belgilarga ega emasligida, ya'ni elektron tijoratda bularsiz ham shartnoma tuzish mumkinligidadir. Shunday qilib, onlayn rejimda tuzilgan shartnomalarning belgilaridan biri huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi hisoblanadi. Bunday elektron munosabatlarga misol sifatida elektron auksion o'tkazish bo'lishi mumkin, bunda buyurtmachi tomonidan bunday auksion to'g'risidagi bildirishnoma va u to'g'risidagi hujjatlarni yagona axborot tizimiga joylashtirish orqali cheklanmagan miqdordagi shaxslar e'lon qilinadi, bunday auksionni o'tkazish uning operatori tomonidan elektron platformada ta'minlanadi. Axborot vositachilari ishtirokida elektron vositalardan foydalangan holda shartnomalar tuzishda tomonlarning o'zaro hamkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni provayderlar deb ham atashadi. Provayderlar - Internetga kirish, shuningdek, unda ma'lumotlarni joylashtirish va uzatish xizmatlarini ko'rsatadigan ixtisoslashgan tashkilotlar. Bunday vositachilarning rolini ortiqcha baholash qiyin: ular Internetda o'zaro aloqada bo'lgan tomonlar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir. Shuni ta'kidlash kerakki, bu onlayn rejimda shartnomalar tuzishning asosiy xususiyati emas, bu elektron sohada yuzaga kelgan va yuzaga keladigan har qanday huquqiy munosabatlarga xosdir. An'anaviy savdo aylanmasida tijorat jarayoni ishtirokchilari (ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar) o'rtasida ko'pincha vositachilar (komissiya agentlari, brokerlar, agentlar, konsignatorlar) mavjud bo'lib, ular tovar ayirboshlash uchun savdogarlarni birlashtirish yoki tovarlarni ilgari surishda yordam berish funksiyalarini bajaradilar. Elektron tijoratda xuddi shunday vazifani esa elektron aloqa operatorlari bajaradilar. Ularni "elektron axborot vositachilari" deb ham atash mumkin. Demak, elektron tijorat operatori deganda, elektron tijoratda elektron hujjatlar va elektron xabarlar aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunining 11-moddasiga muvofiq: "Elektron tijorat operatorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: telekommunikatsiya tarmoqlari operatorlari va provayderlari; elektron savdo maydonchalari operatorlari; to'lovga oid xizmatlarni yetkazib beruvchilar; elektron tijorat subyektlarining elektron hujjatlarini va elektron xabarlarini saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar. Elektron tijorat operatorlari jumlasiga qonunchilikka muvofiq boshqa yuridik shaxslar ham kiritilishi mumkin.<sup>4</sup>" Demak, an'anaviy shartnomaning elektron tijoratdagi shartnomadan yana bir asosiy farqi, unda elektron tijorat operatorlarining mavjudligidadir.

<sup>2</sup> Рыков А.Ю. Гражданско-правовое регулирование сделок в глобальной компьютерной сети «Интернет»: дис., М., 2009. С.78.

<sup>3</sup> Карев Я.А. Электронные документы и сообщения в коммерческом обороте: правовое регулирование. М., 2006. С. 47.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida" gi qonuni, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son

*Elektron shartnomaning yana bir asosiy belgilaridan biri* – uni vakolatli shaxs tomonidan imzolanishini ta’minlashdir. Bunda tomonlar elektron raqamli imzolaridan foydalanadilar. Bu faqat qo’lda yozilgan imzoning analogini yaratishga imkon beruvchi maxsus dasturlar yoki texnik vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Elektron raqamli imzo deganda, O’zbekiston Respublikasining “elektron raqamli imzo to’g’risida”gi qonuniga muvofiq, “elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o’zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo” tushuniladi. Demak, an’anaviy tijoratda taraflar shartnomani o’z imzolari orqali uchrashuvda imzolasalar, elektron tijoratda bu jarayon elektron raqamli imzodan foydalanib, taraflarning hujjatni imzolashi orqali amalga oshiriladi va bu yo’l bilan uning huquqiyliги kafolatlanadi, bu esa elektron shartnomalarning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Shu o’rinda, *elektron shartnomalarning yana bir asosiy belgilaridan biri, shartnomadan kelib chiqadigan to’lov bilan bog’liq majburiyatlarning elektron to’lov tizimlari orqali amalga oshirilishi mumkinligi* hisoblanadi. **Elektron to’lov** – axborot va texnik vositalardan foydalangan holda elektron to’lov hujjatlari orqali naqdsiz to’lovlarni amalga oshirish shakli, **elektron pullar** esa — elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to’lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlari hisoblanadi. To’lov majburiyatining ham elektron tarzda amalga oshirilishi taraflar uchun qulay hisoblanadi va shu jihati bilan an’anaviy tijoratdan farq qiladi. Demak, elektron tijoratda shartnomalarning elektron savdo maydonchasida tuzilishi, hujjatlar, barcha kerakli ma’lumotlarning elektron tarzda ayirboshlanishi, elektron tarzda imzolanishi orqali huquqiyliги ta’minlanishi va shuningdek, to’lovlarning ham elektron tarzda amalga oshirilishi mumkinligi elektron shartnomaning asosiy belgilari hisoblanadi.

### References:

1. Ro’zinazarov.Sh, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. Mas’ul muharrir: y.f.d., prof. Sh.N.Ro’zinazarov. – T., TDYU, 2021.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3724-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018 y., 07/18/3724/1261-son, 31.10.2018 y., 06/18/5564/2137-son, 09.11.2019 y., 06/19/5870/4010-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son.
3. O’zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan “Elektron tijorat to’g’risida”gi 792-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son.